



O‘QUVCHILARNI MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Urozoʻv F.I.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: islohot, milliy o‘zlikni anglash, tashabbuskorlik, ijtimoiy–professionallik, barkamollik, ma’naviy-ahloqiy fazilatlar, tarixiylik.

Ключевые слова: реформа, осознание национальной идентичности, инициатива, социал-профессионализм, совершенство, духовно-нравственные качества, историчность.

Key words: reform, awareness of national identity, initiative, social professionalism, perfection, spiritual and moral qualities, historicity.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘z samarasini yoshlarning ma’naviy kamolatida ham o‘ziligini anglagan holda o‘z-fikr mulohazalari asosida hechkimdan kam bo‘lmagan holda tengdoshlari orasida xalqaro maydonda erishayotgan yutiqlari ham bunga misol bo‘la oladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islohot – bu yangilanish, o‘zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o‘zgarishi kerak. Inson o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi ” degan purmano so‘zlarida ham ko‘p ma’no-mazmun yashirin. Darhaqiqat, har qanday islohot zamirida yoshlarimiz ma’naviy kamolligi, milliy o‘ziligini anglashi tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g‘oyalarini qo‘llab- quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat kelajagi farovonligidan dalolat beradi. Shu sababli millatimiz kelajagi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish demokratik davlat, ma’naviy tarbiyalangan fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida eng muhim ilg‘or tashabbus omili hisoblanadi.

Xususan, milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongida milliy g‘oyaga doir bilimlarni shakllantirish; mahallalarda ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suhbatlar o‘tkazish; milliy urf-odat va marosimlarni

o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish kerak, deb belgilab qo'yilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy o'zligini anglashiga yuqorida ko'rsatilganidek, 5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishining malaka talablarida belgilangan kompetensiyalar pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy faoliyat sohasida o'z aksini topgan.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini belgilab berishda yuqorida keltirib o'tilgan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarning yechimi tegishli ma'lumotga ko'ra, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalangan, ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashning ustuvor vazifasidir. Tegishli soha mutaxassisleri bo'lmish pedagog kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etuvchi milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini tahlil qilish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Shuningdek, uning milliy g'oya va ma'naviyat bilan aloqadorligi masalasi ham muhim uzluksiz jarayon xisobdanadi.

Jumladan, har bir millatning o'ziga xos milliy madaniyati va milliy o'zligini anglash millatning ma'naviy dunyosi mavjudligining muhim shartidir. Milliy madaniyat millatning shakllanishi jarayonida uning mohiyatini belgilashda ham iqtisodiy, hududiy birlik singari muhim belgilar bilan bir qatorda turadi va ayni paytda milliy o'zligini anglashning ifodalovchisi hamdir.

Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim insonni ulug'lab, uning aqliy kamolotiga xizmat qilsa, tarbiya uning xulq-atvori hamda xarakter xususiyatlarini rivojlantiradi, o'zligini anglashga sabab bo'ladi. Ta'lim-tarbiya, ahloq, umuminsoniy qadriyatlar bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'z o'zini anglashga xizmat qiluvchi omillar bo'lib sanaladi.

XX asrning 90-yillarga kelib sho'rolar tuzumining yemirilishi tezlashishi oqibatida milliy munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolarning yuzaga chiqishi milliy o'zlikni anglash omilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi. O'zbekistonda S.Otamurodov, A.S.Ochildiev, A.A.Abdurazzoqov, J.Bahronov, I.R.Xo'jamurodov kabi olimlar tomonidan bu masalalar keng tahlil qilindi. Ularda milliy o'zlikni anglash omillarining turli qirralari to'g'risida juda yaxshi, yangi fikrlar ilgari surilib, milliy o'zlikni anglash omilini millatning asosiy belgilaridan biri ekanligini ilmiy asoslashga harakat qilgan edi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirish orqali milliy o'zlikni anglash tushunchasi tahlilining pedagogik zaruriyat sifatida qaralishiga quydagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

“1) yoshlarda milliy birlikni ta'minlash;



2) milliy qadriyatlarga: tilga, tugʻilib oʻsgan joyga, madaniyatga (keng maʼnoda) ixlosmandlik;

3) vatanparvarlik;

4) milliy mustaqillik va milliy taraqqiyot rivojiga oʻz xissasini qoʻshishga intilish

5) milliy manfaatlarni anglash kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz olimlaridan S.Nurmatov milliy oʻzlikni anglash maslasiga toʻxtalar ekan, quydagi jihatlariga toʻxtalib oʻtadi:

a) milliy gʻoya sifatida anglashdan;

b) milliy tuygʻu - milliy iftixor, qadr-qimmat, or-nomus;

v) milliy mansublikni anglashdan iborat tarkibiy tuzilma sifatida baholay olish kabi jihatlarini aniqlashtirib oʻtadi.

Tadqiqot muammosiga oid taxlillar shundan dalolat beradiki, boʻlajak oʻqituvchilarda milliy oʻzlikni anglash, maʼnaviy barkamol shaxsini tarbiyalash muammolari boʻyicha respublikamiz olimlari X.M.Tojiboeva, M.Quronov, Q.Quronboev, B.Sh.Shermuhammadov, G.J.Tulenova, E.Yusupovlar tadqiqotlarida yoshlar maʼnaviyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga toʻxtalib oʻtgan.

X.M.Tojiboyeva ilmiy tadqiqot ishida yosh avlod tarbiyasida ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyati boʻlib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak koʻrinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan holda keltirib oʻtadi.

Q.Quronboyev oʻz tadqiqotida “talabalar maʼnaviy kamolotida – ijtimoiy rivojlantirishning uslublari va mazmuni, pedagogik asoslari, maʼnaviy – ahloqiy muammolar, yoshlar taʼlim-tarbiyasida ongli intizomning oʻrni, burch va masʼuliyat, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish”ga oid mulohozalarni tadqiq etgan.

Olim B.Shermuhammadov oʻz tadqiqotida yoshlar maʼnaviy tarbiyasi masalalariga alohida urgʻu bergan holda toʻxtalar ekan: “yoshlardagi ijtimoiy faollik qobilyatlari, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan oʻsish imkoniyatlarini oldindan aniqlash, ijodiy fikrlash jarayoni orqali oʻzilini anglay oladi” deb ifodalangan.

Shuningdek, bu masala bilan shugʻullangan tadqiqotchilar ishlarini tahlil qilar ekan J.Bahronov oʻzi qoʻshilishi mumkin boʻlgan nazariy fikrlarni sanab oʻtadi: qabila, elat, millat yoʻqki, u oʻz-oʻzini anglamasin (Y.V.Bromley); milliy oʻz-oʻzini anglash mazkur millatning yashayotganligi gʻoyasini oʻz ichiga oladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarda milliy oʻzlikni angalash kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy sharti shundan iboratki milliy oʻz-oʻzini anglash oʻz tarkibiga boshqa millatlarga u yoki bu xildagi munosabatni singdiradi milliy

o'zlikni anglashga milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish hamda milliy manfaat kabi elementlarni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetnsiyalarini shakllantirish maslasi milliy o'zlikni anglash omilining millat hayotidagi o'rni bilan ham alohida o'rin tutadi. Chunki, bu masalani o'rganishga globallashuvning keng quloch yoyishi, uning millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishi, milliy an'analar va qadriyatlarga ta'siri turtki beradi.

Milliy o'zlikni anglashning millatning muhim belgilaridan biri bo'lishi yoki bo'lmasligi masalasi tahliliga qaytar ekanmiz, biz quyidagi konkret misollarni keltirish orqali aniqlik kiritish joiz deb hisoblaymiz:

Birinchidan, butun Yevropaning taraqqiy etgan bir qator mamlakatlari yagona iqtisodiy va harbiy makonni vujudga keltirish uchun jiddiy qadam tashlamoqdalar. Ammo u mamlakatlarda yashayotgan millatlarning iqtisodiy va siyosiy muammolari to'la hal qilinganligiga qaramasdan, ularning birontasi ham o'zaro qo'shib ketish masalasini kun tartibiga qo'yganicha yo'q. Aksincha, ularning har birida o'z milliy an'analari, urf-odatlar, qadriyatlarini o'zlashtirishga va jahon xalqlariga ko'z-ko'z qilishga intilish kuchaymoqda. Aksilglobalistlar harakati keskin kuchaymoqda.

Ikkinchidan, bugun moddiy jihatdan qoloq yashayotgan millatlar qurbonlar berib bo'lsa ham, o'z mustaqilligi uchun kurash olib bormoqdalar. Shuning oqibatida mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashlar katta mintaqaviy muammolarning kelib chiqishiga ham sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida millatimizning o'z ma'naviy meroslari, qadriyatlariga qanchalik tashna ekanligini, hamda ularni o'zlashtirish borasidagi harakatlarining guvohi va ishtirokchisi bo'lib turibmiz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, milliy o'zlikni anglash millat mavjudligining eng muhim belgilaridan birini tashkil qiladi.

Tadqiqot jarayonida milliy o'zlikni anglash kompetnsiyalarini tadqiq etilishining ijtimoiy, pedagogik-psixologik xususiyatlarini takomillashtirishining asosiy prinsiplari quyidagi tartibda aniqlandi:

- milliy o'z-o'zini anglash har bir millatning o'zini haqiqiy mustaqil sub'ekt sifatida o'z davlatchilik tarixini, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf - odatlar, an'analar, qadriyatlar sohibi ekanligini anglab yetishi;

- milliy o'z-o'zini anglash millat rivojlanishining nisbatan yuqori bosqichida vujudga kelib, milliy ongdan farq qiladi. Agar milliy ong millatning yagona til, urf - odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining yuksalishini ifoda etsa,



milliy o‘z-o‘zini anglash-milliy manfaatlarni himoya qilishda va rivojlantirishda “harakatga” keluvchi ichki ma’naviy-mafkuraviy salohiyat ekanligi;

- milliy o‘z-o‘zini anglash millat sha’ni, qadr-qimmat, obro‘-ye’tibori, or-nomusi poymol etilganda, unga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari yuzaga kelganda real moddiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi;

- milliy o‘z-o‘zini anglash omili milliy manfaatlarni himoya qilishda qudratli kuch hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash shunday omilki, u yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarish yo‘li bilangina millatni har qanday zararli ta’sirlardan himoya qilish mumkin. Chunki, u millatda manfaat, iftihar, g‘urur, sha’n, or-nomus e’tiqod va ma’suliyat kabi qadriyatlarni abadiylashtiruvchi yuksak darajadagi ma’naviy qadriyat hisoblanadi. Manfaatlarni himoya qilish tarqoq millatni birlashtiradi, millat ichidagi turli qarama-qarshiliklarga vaqtincha bo‘lsa-da, barham berishi mumkin. Chunki millat taqdiri, or-nomusi, qadr- qimmat umummilliy manfaatdir. Milliy manfaatlar millatga, milliy davlatga, moddiy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar tizimidir.

O‘z navbatida o‘zlikni anglash muayyan bir g‘oya sari yo‘naltirilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Insoniyat hayoti muayyan fikrlar, g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq. G‘oya inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi va uzluksiz ravishda takomillashib, rivojlanib, davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Shu sababli inson, jamiyat taraqqiyotida g‘oya va ma’naviyatning o‘rni hamda ta’sirini o‘rganish barcha davrda muhim ahamiyatga ega. Inson va jamiyat hayotida muhim islohot va o‘zgarishlarni amalga oshirishda muayyan g‘oyalar inson faoliyatiga rahnomalik qiladi, o‘ziga xos alohida o‘rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarda keskinlashuvi yoki sekinlashuvi, yuksak taraqqiyot-u zalvorli inqirozlar, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro‘y berishi jamiyatda qanday g‘oyalar hukmronlik qilishi, ular ma’naviy-ahloqiy negizlarga tayanganligi, qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko‘p jihatdan bog‘ligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.—Toshkent: O‘zbekiston, 2018.—252 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 5111600-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo‘nalishining malaka talablari 5-6 bet
3. Abdirazzoqov A.A. Milliy ma’naviy qadriyat va uning milliy O‘zlikni anglashda tutgan o‘rni. f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. T.: 1995;
4. Achildiev A.S. “Milliy O‘z-O‘zini anglash va milliy madaniyatning O‘zaro ta’siri muammosi” f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. T.: 1994 yil.
5. Nurmatov S. Natsionalnoye samosoznaniye: sushnost, tipi i tendensii ix razvitiy. Avtoref. dis. sois. uchen. st. k.f.n-t., 1979. str-5..



6. Tojiboeva X.M. “O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi” diss. 2018 y.
7. Quronboev Q. “Talabalarning ma’naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)”: p.f.n.diss. – T.: O‘zPFITL, 2000 y.
8. Shermuhammadov B.Sh. Yoshlar orasida milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish. Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2016. – 37 – 53 b.
9. Bahronov J. Shaxs milliy o‘zligini anglashi qonuniyatlari - Samarqand., 1994, 22-bet.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o‘quvchilarda mmiliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishda milliy ong va g‘ururni roli, jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati, intellektual salohiyatli barkamol yosh-avlodni tarbiyalash, uzluksiz ta’lim tizimida milliy g‘oyaga doir bilim va tafakkurini yuksaltirish shuningdek, ularning umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik ta’sir vositalari orqali yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль национального самосознания и гордости в формировании компетенций национального самосознания у студентов, духовно-просветительской деятельности общества, воспитании всесторонне развитого молодого поколения, обладающего интеллектуальным потенциалом, познании национальной идеи в непрерывном образовании. системы и воспитания их мышления также выделяется средствами педагогического воздействия на развитие высоких человеческих качеств, таких как общечеловеческие ценности, доброта, толерантность, патриотизм, лояльность.

SUMMARY

This article examines the role of national identity and pride in the formation of competencies of national identity among students, the spiritual and educational activities of society, the education of a comprehensively developed young generation with intellectual potential, and the knowledge of the national idea in lifelong education. system and education of their thinking is also highlighted by means of pedagogical influence on the development of high human qualities, such as universal human values, kindness, tolerance, patriotism, loyalty.